

“QOBUSNOMA ASARINING YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN AHAMIYATI”

**Yusupov Asadbek Odil o'g'li**

*O'zbekiston Finlandiya Pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim va Gumanitar fanlar fakulteti,  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs 305 - guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Hozirgi rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yoshlarga etibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bunda yoshlarni har taraflama yetuk shaxs qilib tarbiyalash ularni vatanparlik ruhida tarbiyalashda kitobni o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida “Qobusnoma” asarining didaktik ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Nasihatnomai Kaykovus, Gilonshoh, Quroni karim suralari, hunarni o'rganish, rostgo'ylik, notiqlik.

Fors-tojik didaktik asarlaridan hisoblanmish “Qobusnoma” XI-asrda Mozandaron hukmdori Shams al-Ma'aliy Qobusning nabirasi Unsur al-Ma'aliy Kaykovus , (1021—1098) tomonidan fors tilida yozilgan. “Qobusnoma” taxminan 1082—1083 yilda yozilgan bo'lib, “Nasihatnomai Kaykovus” deb atalgan. Unsur al-Ma'aliy Kaykovus bu asarni o'g'li Gilonshoh tarbiyasiga bag'ishlab ejod etgan.

“Qobusnoma” asari 44 bobdan iborat bo'lib, asarning asosini Quroni karim suralari, Muhammad payg'ambar faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalavchi hadislar , hikmatlar tashkil qiladi. Bu asar «Parvardigori olamni tanimoq zikrida», « Payg'ambarlarning xilqati zikrida», «Haq taoloning shukrguzarligi zikrida » , «Ne'matlar sipasdorligi zikrida » boblari bilan boshlanadi.

Bu asarning boshidan oxirigacha har bir bob tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, yoshlar tarbiyasida ahamiyati beqiyosdir. Bunda ota-onani hurmatlash, saxovat va juvonmardlik, hunar o'rganish, odob-axloq qoidalariga rivoya qilish va bir qator shu kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Asarda yozuvchi hunarni nechog'lik ahamiyati haqida shunday yozadi: “ Agar aqling bo'lsa hunar o'rgang'il, nedin – kim hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandek – dir. Undoqkim debdurlar: Al-adab-suratil - aql. ” - Shunday ekan, albatta, har bir kishi hunar o'rganmog'i kerak.

Qobusnomada rostgo'ylik va bironing haqini yemaslikka ham alohida to'xtalib o'tilgan . Asarda shunday bir hikoya keltirilgan : “Shundoq eshitdimki, bir kishining qo'ylari bag'oyat ko'p erdi.Uning bir porso va diyonatli cho'poni bor edi. U har kuni qo'ylarni so'g'ib, har na hosil bo'lg'on

sutni qo'y egasining oldiga keltirur erdi. Qo'y egasi ul sutga yarim hissa suv qo'shib, cho'ponga sotg'il deb berur erdi. Cho'pon unga bundoq nasihat berur erdi: "Ey xo'ja, musulmonlarga xiyonat qilmag'ilki, o'zingga zarar yetkazursan". Ul kishi cho'ponning nasihatini eshitmasdan ul ishni qilur erdi.

Bir kecha bahor vaqtida cho'pon qo'ylarni osoyishi uchun bir sel oqadig'on past joyga qo'ymish va o'zi baland joyga chiqib uyquga ketmish erdi. Ittifoqo ko'p yomg'ir yog'ib, sel oqib kelib qo'ylarni oqizib ketdi va barcha qo'ylar halok bo'ldi. So'ngra cho'pon shaharga keldi. Qo'y egasi unga dedi: "Bugun nima uchun sut olib kelturmading?" Cho'pon dedi: "Ey xo'ja, men senga necha bor sutga suv qo'shmag'il, oxirini o'ylag'il, dedim. Lekin mening so'zimni hargiz eshitmading. Oxiri suvga qo'shg'on suvlaring hammasi yig'ilib, o'tgan kecha bir sel bo'lib shundoq oqdiki, hamma qo'ylarni oqizib ketdi."

Kaykovus o'g'liga nasihat qilib ota-onaning ko'nglini ranjitmaslikka, ularni hurmatini qilib, shirinso'zlik bilan xushmuomala bo'lishga undaydi: "... o'z farzanding seni hurmat qilishini istasang, sen ham ota-onangni hurmatini joyiga qo'y, zero, sen ularga qanday munosabatda bo'lsang, xuddi shunday o'zingga qaytgay".

Kaykovus kishi yolg'on sozlamasligi, xalqqa maqul keladigan so'z so'zlashga harakat qilmog'i haqida mulohaza yuritadi. Hamma hunardan so'z hunari yaxshiroq ekanini takitlaydi.

Kaykovus har bir kishi notiq bo'lmog'i lozimligini, ammo yolg'onchi bo'lmasligini ta'kidlab shunday deydi:

Kishi suxandon, suxango'y (notiq) bo'lishi kerak. Ammo, ey farzand, sen suxango'y bo'lg'il va lekin durug'go'y (yolg'onchi) bo'lmag'il. Rostgo'ylikda o'zing shuhrat qozong'il, tokim biror vaqt zururat yuzidin yolg'on so'z desang qabul qilg'aylar. Har so'z desang ham rost degil va lekin yolg'onga o'xshagan rostni demagilkim, rostga oxshag'on durug' durug'ga o'xshag'on rostdin yaxshiroqdur, nedinkim ul durug' maqbul bo'lur, ammo ul rost maqbul bo'lmas. Demak, nomaqbul rostni aytishdan parhez qil...

Unsur al-Maoliy Kaykovus o'g'li Gilonshohga murojaat qilib unga o'z pandlarini qoldirib bu dunyoni tark etishini, o'ziga bino qo'ymasligini va o'ziga munosib ishlarni qilishini takidlab quyidagicha yozadi: "Ey farzand, umidim shuki, sen bu pandlarni qabul qilg'aysan. Bilgilki, xalqning rusmi odati shundayki, yugurib-elib, qidirib-axtarib dunyodan biror narsa hosil qiladilar va narsalarini o'zlarining yaxshi ko'rgan kishisiga qoldirib ketadilar. Men dunyoda mana shu so'zlarni hosil qildim, sen mening uchun eng qimmatbaho xazinasan. Menga safar vaqti yaqinlashdi, dunyodan nima

hosil qilgan bo'lsam, sening oldingga qo'ydim, toki o'zingga bino qo'ymag'aysan va o'zingga nomunosib ishlarni qilmag'aysan".

### XULOSA

Unsur al-Maoliy Kaykovusning "Qobusnoma" asari tom manoda bu biz yoshlarni barkamol shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rnimizni topishda o'zining beqiyos hissasini qo'sha oladi. Bundan bir necha asr oldin yaratilgan bo'lsahamki, hozirgi rivojlangan asrda ham o'z qadr qiymatini saqlab qolgan.

Bu asar garchand Unsurul al-Maoliy Kaykovus o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab yozgan bo'lsa ham o'zining tarbiyaviy ahamiyati bilan butun bir insoniyat uchun yozilgan desak xato qilmaymiz!

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

- 1.Qobusnoma /Kaykovus. Nashrga tayyorlovchilar: Subutoy Dolimov , Ulug'bek Dolimov . – Toshkent: Yangi asr avlodi , 2016. – 224 b.
2. Kaykovus. Qobusnoma. T., 1986.
- 3.Qudratov T. Nutq madaniyati masalari. T., 1993.
- 5.www. Wikipedia.org
- 6.www.ziyonet.uz